

Turkistonda muxtoriyat e'lon qilinur

O'ktobr oxirinda Toshkanda katta sug'ish bo'lub, ko'b qonlar to'kulq'on so'ngida Xo'qand shahrinda yigirma beshinchi no'yobrda Turkiston viloyatining musulmon siezdi yosoldi. Mazkur siezdga Turkiston mamlakatindagi har bir jamiyatlardan va har bir soyuzlardan va milliy sho'rolardan dilgotlar hozir bo'lg'onlari uchun bu siezd butun o'n miliunli nufusli Turkistonning musulmon xalqining tivushli ishlariga qaror berurga huquqli bo'ldi.

Shul sababli, butun Turkiston xalqi mazkur siezdagi bo'lg'on qarorlarning hamasiga rozi bo'lurga tivushli bo'lurlar.

Turkiston xalqining 98 prosenti turk xalqlari, ya'ni musulmonlar bo'ldig'indan har bir siezd va majlislarda bo'lg'on qarorlarda bular aksariyat tashkil qilg'on sababli Turkistonda yoshiydurkon boshqa millatlarning xuquqlari nufuslariga mutanosib bo'lg'oni sababli, bu siezdda bo'lg'on qarorlarni qabul qilurga majbur bo'lurlar ko'b o'ngg'oysizliqlar oldinda tursa ham bunga qoromoy siezd o'z vazifa va ishlarini tamom ado etorga muvafaq bo'ldi.

Siezdnинг ikkinchi kuni 28 inchi no'yobrda Turkistonda kelajakda bo'ladurgon idora masalasi qo'zg'olub bu masala muzokaraga qo'yulub tunda soat o'n ikkida bir og'izdan qabul qilinub muxtoriyat e'lon qilindi. Bu qarorga faqat Toshkandagi ulamo jamiyatidin borgon vakillar bu qaror siyosiy bir qaror bo'lg'onlikdin ahamiyat bermagonlor chunki bu qarorni bizlor uchun diniy qaror emas deb o'ylogen bo'lsa kerak. Siezdnинг ikkinchi kuninda, ya'ni 27 inchi no'yobrda Turkistonning butun o'n miliunli nufusli musulmonlori e'lon qiling'on muxtoriyatni faoliyatga chiqoruv uchun ont ichub, 54 kishidan iborat vaqtincha a'zo soylonub xalq sho'rosi yosoldi. Bu ham vaqtincha 12 kishidan iborat Turkiston hukumati tashkil etildi. Mazkur soylnomish o'n ikki nafar idora hayat a'zolarini har vaqtda muhofizat qilmoq uchun va'dalar berub ishonturdilar. Mazkur siezdda bulardin boshqa yana ish yurguzodurgon yana bir hayat a'zosi bo'luni lozim ko'rdilar. Bunga butun Turkiston viloyati ismidan ish yurguzadurgon hayat a'zolarini o'z orolaridan sharq janubi hukumatlari ila munosabat qilurga elchilar soylob yuboruvni lozim ko'rdilar.

Mazkur ish yurguzadurgon hayat a'zosiga yaqinda Turkistonda bo'ladurgon uchriditilniy sobroniaga choqiruvni o'z vazifasi deb bildilar.

Xo'qanda bo'lg'on mazkur siezd umumiylar Turkiston viloyatining siezdi bo'lg'on bo'lsa ham Toshkand ishchi musulmonlar sho'rosi fropitsyonolniy¹ soyuz bo'lub qolmay, so'ogra yaxshiroq quvvat olub, butun viloyatni ishchilar sho'rosi ekanin ma'lum qilub, u bir siyosiy jamiyat bo'lur deb umid qilsa ham bu umidni ba'zi bir sabablar ila yuzaga chiqorolmay turgon sababdin faqat quvvatlanu uchun avalgoyli vaqtdan foydalonuni lozim ko'rmoy mazkur siezdga Toshkand ishchi sho'rosi o'z tarafidan vakil yuboruvni lozim ko'rmodi.

*"Ishchilar dunyosi" jurnali. 1918 yil, 4 yanvar.
1-son. 3 – 4-bet.*

¹ Fropitsyonolniy – professionalniy (o'rischa).